

## XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDAN KELIB CHIQUADIGAN NIZOLARDA MEDIATSIYANI QO'LLASH

Otabaeva Maftuna Ravshanbek qizi

Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19659268>

**Annotatsiya.** Maqolada xalqaro tijorat shartnomalaridan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda mediatsiya usulining muqobilligi tahlil qilinadi, Ushbu tizimning an'anaviy sudlarga nisbatan vaqt va harajatlarning kam sarflanishi, shuningdek tomonlar o'rtasida kelishuvga erishish imkoniyatini oshirish kabi afzalliklarini yoritadi.

Mediatsiya jarayonida neytral bo'lgan uchinchi tomon – mediator – nizolashuvchi tomonlar o'rtasida konstruktiv muloqotni tashkil qilishda yordam beruvchi shaxs hisoblanadi.

Maqolada ushbu usulning xalqaro tijorat shartnomalarida qo'llanish mexanizmlari, yuridik asoslari va amaliyotdagi muvoffaqiyatli misollar keltirilgan.

Shuningdek, muallif mediatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari ham yoritadi va O'zbekistonda mediatsiya institutining rivojlanish istiqbollari haqida xulosalar beradi.

**Kalit so'zlar:** Mediatsiya, xalqaro tijorat, nizo, kelishuv, arbitraj, ICC.

## РАЗРЕШЕНИЕ КОММЕРЧЕСКИХ СПОРОВ В РАМКАХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ТОРГОВЫХ СОГЛАШЕНИЙ ПОСРЕДСТВОМ МЕДИАЦИИ

**Аннотация.** В статье анализируется применение медиации для разрешения споров, возникающих из международных торговых соглашений, а также освещаются её преимущества по сравнению с традиционными судами, такие как сокращение времени и расходов, а также повышение вероятности достижения соглашения между сторонами.

В процессе медиации нейтральная третья сторона — медиатор — способствует конструктивному диалогу между сторонами конфликта.

В статье рассматриваются механизмы применения этого метода в международных торговых соглашениях, его правовые основы и успешные практические примеры.

Кроме того, автор обсуждает экономические и социальные аспекты медиации и делает выводы о перспективах развития института медиации в Узбекистане.

**Ключевые слова:** Медиация, международная торговля, спор, соглашение, арбитраж, ICC.

## COMMERCIAL DISPUTE RESOLUTION IN INTERNATIONAL TRADE AGREEMENTS THROUGH MEDIATION

**Abstract.** The article analyzes the applicability of mediation in resolving disputes arising from international trade agreements, highlighting its advantages over traditional courts, such as reduced time and costs, as well as increased opportunities for reaching an agreement between the parties. In the mediation process, a neutral third party—the mediator—facilitates constructive dialogue between the disputing parties.

The article examines the mechanisms of applying this method in international trade agreements, its legal foundations, and successful practical examples.

Additionally, the author discusses the economic and social aspects of mediation and provides conclusions on the prospects for the development of the mediation institution in Uzbekistan.

**Keywords:** Mediation, international trade, dispute, agreement, arbitration, ICC.

**KIRISH.**

Hozirgi kundagi keskin globallashuv sharoitida nizolar(ixtilof, mojaro, ziddiyat, qarama-qarshilik, kolliziya, konflikt) ijtimoiy hayot tarzining doimiy kuzatiladigan hodisalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Nizo – bu shaxslar, guruhlar yoki ularning manfaatlari o'rtasidagi munosabatlarda mavjud uyg'unlikning izdan chiqarib, konflikt yuzaga kelishi natijasida tomonlar o'rtasidagi kelishuvning buzilishiga sabab bo'ladi. Nizo paydo bo'lishi bilan ijtimoiy tizimdagi muvozanat ishdan chiqib, manfaatlar, qarashlar va qadriyatlar o'rtasidagi farqlar keskinlashadi.

Boshqa tomondan qaraganda nizo faqat salbiy hodisa sifatida emas balki, muammolarni yuzaga chiqaruvchi, tizimni qayta ko'rib chiqishga undovchi, o'zgarishlar va yangilanishga turtki beruvchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bois, zamonaviy konfliktologiya fanida nizo ko'proq ijobiy imkoniyatlar yaratishi mumkin bo'lgan jarayon sifatida ham baholanadi.

Bugungi kunga kelib, davlatlar rivojlangan sayin ular o'rtasida madaniy-ma'rifiy aloqalar bilan birga xalqaro savdo aloqalari ham tobora kengayib, korporatsiyalar, xorijiy investorlar hamda milliy kompaniyalar o'rtasida turli ko'lamdagi tijorat shartnomalari tuzilmoqda. Shu bilan birga, ularning iqtisodiy manfaatlari, majburiyatlari va huquqlari to'qnashgan holatlarda, ko'plab huquqiy nizolar vujudga kelmoqda.

**Tijorat nizolari** – bu xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida ularning iqtisodiy, moliyaviy, mulkiy yoki boshqa tijorat faoliyatiga oid manfaatlar to'qnashganida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar va ziddiyatlar majmuasidir. Ushbu nizolar odatda xo'jalik yurituvchi subyektlar, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxslar yoki davlat organlari o'rtasida kelib chiqadi<sup>1</sup>.

Tijorat nizolarining mohiyati shundaki, ular tadbirkorlik faoliyatining majburiy elementiga aylanib, korxonalar faoliyatining huquqiy va iqtisodiy jihatlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Tomonlar o'rtasida tijorat munosabatlarning murakkablashishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatning kuchayishi hamda shartnomaviy munosabatlarning rivojlanishi nizolarni paydo bo'lish ehtimolini oshiradi. Xalqaro huquq tinch yo'l bilan nizolarni hal qilish tamoyiliga asoslanadi. 1969-yilda qabul qilingan Vena konvensiyasida har qanday shartnoma bilan bog'liq nizolar faqat adolat va xalqaro huquq tamoyillariga muvofiq tinch yo'l bilan hal qilinishi kerakligi belgilangan. Bu tamoyil nafaqat davlatlararo munosabatlarda, balki korporativ va transmilliy nizolarda ham mediatsiya va muzokara usullarining ahamiyatini oshirmoqda.

Mediatsiya jarayonida tomonlar nizoni hal qilishning barcha shartlari va qarorlarini to'liq nazorat qiladi, bu esa ularning manfaatlari va qadriyatlariga mos yechim topishni ta'minlaydi.

Nizolarni hal etish jarayoni insoniyat tarixining ajralmas qismi bo'lib, u jamiyatlarning rivojlanish darajasi va madaniyati bilan chambarchas bog'liq. O'sha davrdayoq mediatsiya orqali turli nizolarni hal qilish ommalashgan, masalan, qadimgi Bobilda ko'pincha uchinchi shaxs vositasida nizolar hal qilingan (bu bo'yicha Hammurapi qonunlarida takidlab o'tilgan), Gretsiyada esa mediatorlarga murosachilar (proxenoi) deb murojaat qilingan va Rimda mediatorlarga interpretes va conciliators kelishmovchiliklarni hal qiluvchi uchinchi tomon sifatida qaralgan. Ayniqsa, Rim huquqida mediatsiyaning Yustinian kodeksidan boshlab milodiy VI asrda rasmiy tarzda e'tirof etilishi, va bu hodisa ushbu usulning huquqiy tizimlari shakllanishida naqadar muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi.

<sup>1</sup> Teshayev D. M. Mediatsiya nizolarni hal qiluvchi vosita sifatida //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – C. 593-597.

Mediatsiya Rimda nafaqat savdo nizolarini hal qilishda, balki jamiyatdagi tinchlikni saqlashda ham asosiy vositalardan biri bo'lgan.

Zamonaviy davrda esa mediatsiya yangi ko'rinishda qayta tiklandi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab AQSH, Buyuk Britaniya, Yevropa va Avstraliya kabi davlatlarda mediatsiya va muzokara usullari faol rivojlandi. Bugungi kunda Yevropada mediatsiya nafaqat savdo yoki biznes nizolarida, balki oilaviy va ijtimoiy mojarolarni hal qilishda ham samarali vositaga aylangan.

Bunday yondashuv nafaqat vaqt va harajatlarni tejaydi, balki tomonlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni o'zaro hurmat asosida hal qilish imkoniyatini yaratadi<sup>2</sup>.

Mediatsiya – (lotincha “mediatio”, inglizcha “mediation” – vositachilik) bu ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasidagi nizolarni uchinchi tomon – mediator ishtirokida muqobil hal qilishning samarali va universal texnologiyasi bo'lib bu nizo bo'yicha ma'lum bir kelishuvni ishlab chiqishga yordam beradi, tomonlar nizoni hal qilish to'g'risida qaror qabul qilish jarayoni va uni hal qilish shartlarini to'liq nazorat qiladi. Shuningdek mediatorlar xulqining Yevropa kodeksida – “Mediatsiya – bu ikki yoki undan ortiq tomon ushbu tomonlarga nizoni sud qarorisiz kelishuv tartibida hal etishga yordam berish uchun uchinchi tomon – vositachini jalb qilishga rozilik berish orqali o'tadigan istalgan jarayon”, deya ta'rif berilgan.

### **ASOSIY QISM.**

Tijorat nizolarini hal etishda mediatsiya va muzokara usullari zamonaviy huquqiy muhitda samarali va muqobil yechimlar sifatida e'tirof etiladi. Bu usullar nizolarni sudgacha hal qilish imkoniyatini yaratib, vaqt va xarajatlarni tejashga xizmat qiladi. Mediatsiya jarayonida nizolar maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, betaraf mediator ishtirokida hal etiladi. Bu usul nizolashayotgan tomonlarning o'zaro ishonchiga asoslangan bo'lib, natijada barcha tomonlarning manfaatlariga mos keladigan kelishuvga erishish mumkin.

Muzokaralarda esa tomonlar bevosita muloqot orqali o'z pozitsiyalarini muhokama qilib, nizoni tinch yo'l bilan hal qilishga intiladilar. Bu usulda tomonlarning o'zaro birgalikdagi harakati hamda maxfiylikning saqlanishi asosiy afzalliklardan biridir. Mediatsiya va muzokara usullari sud jarayonlariga nisbatan ancha tezkor, iqtisodiy jihatdan arzon va moslashuvchan bo'lib, tomonlar uchun xavfsiz muhit yaratadi. Ular nafaqat nizoni hal qilishni, balki kelgusida hamkorlikni davom ettirish imkoniyatlarini saqlab qolishlariga imkon yaratadi.

Bu usullar nizolarni sud orqali emas, balki tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida hal qilish imkoniyatini yaratadi. Shu munosabat bilan olimlar nizolarni muqobil hal qilish usullarining huquqiy tabiati va samaradorligi haqida turli yondashuvlarni ilgari surishmoqda.

Masalan R. Fisher va W. Ury olimlar o'zlarining mashhur “Getting to Yes” asarida muzokaralar jarayonining konstruktiv tomonlariga e'tibor qaratadilar. Ularning fikricha, muqobil nizolarni hal qilish usullari, xususan, muzokara va mediatsiya, tomonlar o'rtasidagi qarama-qarshilikni yengish va umumiy manfaatlarga erishishning samarali yo'lidir. Ular ushbu jarayonni nizolashuvchi tomonlarning har ikkisi uchun ham foydali bo'lgan yechimni izlashini asosiy maqsad qilib qo'yadi. Yana bir olim J.L.Riskin muqobil usullarning moslashuvchanligini tahlil qilib, “Riskin's Grid” modelini taklif qiladi. Ushbu modelda mediatsiya va muzokaralar jarayonlari nizoning murakkabligiga qarab moslashtiriladi. Uning fikricha, har bir nizo o'ziga xos bo'lgani uchun uni hal qilishda yondashuv ham o'zgartirilishi kerak. Bu yondashuv biznes va xalqaro nizolarni hal qilishda juda foydali hisoblanadi.

<sup>2</sup> Sharipov, A. S. & Rashidov, (2024). Consideration of the Case in Court in Mediation Order. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, Volume, p-106–107.

Riskin Grid mediatsiyaning ikki asosiy usuli – evaluative (baholovchi) va facilitative (yo‘naltiruvchi) yondashuvlarni ajratib ko‘rsatadi. Baholovchi mediator tomonlarga qarorlarni ko‘rsatishga yoki maslahat berishga moyil bo‘lishi mumkin, yo‘naltiruvchi mediator esa, asosan, tomonlarga o‘zaro kelishuvga erishish uchun imkoniyat yaratib beradi

Mediator – mustaqil, xolis va professional vositachi bo‘lib, nizolashayotgan tomonlarga o‘z pozitsiyalarini tushunishda va ular uchun maqbul bo‘lgan kelishuvni ishlab chiqishda yordam beradi. Mediatsiya jarayonida tomonlar nizoni hal qilishning barcha shartlari va qarorlarini to‘liq nazorat qiladi, bu esa ularning manfaatlarini va qadriyatlariga mos yechim topishni ta‘minlaydi.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy, shaxslararo munosabatlarning rivojiga xizmat qiladigan va ijtimoiy tizimning barcha shakllarida – oila, iqtisodiyot, mehnat bozori, davlat ma‘muriy amaliyotida keng qo‘llaniladigan, hayotdagi turli xil nizolarni tinchlik, muzokara va murosa yo‘li bilan hal etishning ilg‘or va muqobil usuli mediatsiyadir. Mediatsiyaning afzalligi shundaki, u nizoni hal qilishning tezkor, iqtisodiy jihatdan tejamkor va insoniy yondashuvga asoslangan usulidir. Mediatsiya jarayoni, odatda, quyidagi olti bosqichga bo‘linadi<sup>3</sup>.



A‘nanaviy sud va arbitraj jarayonlari ko‘p vaqt talab etuvchi, murakkab va qimmat bo‘lganligi sababli, xalqaro amaliyotda muqobil nizolarni hal etish usullari (Alternative Dispute Resolution – ADR) keng tarqalmoqda<sup>4</sup>. Bu usullar ichida mediatsiya eng moslashuvchan va samarali mexanizmdir. Masalan, ICC‘ning 2023 yil statistikasi arbitraj jarayonlarining o‘rtacha davomiyligi 27 oy, median davomiyligi 25 oy ekanligini ko‘rsatdi<sup>5</sup>.

O‘zbekiston Respublikasida shakllanishi mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, huquqiy tizimni modernizatsiya qilish, sud islohotlarini chuqurlashtirish va nizolarni adolatli hal etish mexanizmlarini kengaytirish bo‘yicha izchil siyosat olib bordi. Shu jarayonning mantiqiy davomi sifatida 2018-yil 3-iyulda “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun mediatsiyaning huquqiy asoslarini, mediatorlarning maqomini va jarayon tartibini belgilab berdi.

<sup>3</sup> Abdullo o‘g‘li D. D. Mediatsiya va uning bosqichlari //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 258-265.

<sup>4</sup> De Palo, G. EU Mediation Law and Practice. Oxford University Press, 2019.

<sup>5</sup> <https://www.skadden.com>

2022-yilda qabul qilingan o'zgartirishlar esa mediatsiya sohasining qo'llanish doirasini kengaytirib, uni iqtisodiy, fuqarolik va mehnat nizolarida qo'llash imkonini yaratdi<sup>6</sup>.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida Mediatorlar reyestri yuritilmoqda va professional mediatorlarni tayyorlash tizimi shakllangan. Shuningdek, Toshkent xalqaro arbitraj markazi (TIAC) va O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Mediasiya markazi xalqaro tajribani milliy amaliyot bilan uyg'unlashtirish bo'yicha faol ish olib bormoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o'z chiqishlarida bir necha bor "nizolarni tinch yo'l bilan, murosaga asoslangan holda hal etish madaniyatini rivojlantirish" zarurligini ta'kidlagan. Bu esa mediatsiya institutining ijtimoiy huquqiy ahamiyatini yanada oshiradi. O'zbekiston xalqaro savdo maydoniga faol integratsiyalashayotgan bir davrda, xorijiy investorlar ishonchini oshirish uchun samarali nizolarni hal etish mexanizmlarini joriy etish muhimdir. Mediatsiya bu borada eng maqbul vositadir, chunki u: nizo taraflariga adolatli, tezkor va iqtisodiy yechim beradi; sud tizimidagi yukni kamaytiradi; huquqiy barqarorlikni mustahkamlaydi; investorlar uchun xavfsiz huquqiy muhit yaratadi.

Arbitraj sudlari, xususan, Toshkent xalqaro arbitraj markazi (TIAC), chet el elementlari ishtirokidagi iqtisodiy nizolarni hal qilish uchun qulay platforma hisoblanadi. Bu usul jarayonni qisqartiradi, taraflarga arbitrlar sonini va qo'llaniladigan huquqni tanlash imkonini beradi.

O'zbekistonda nizolarni hal etishda mediatsiya va arbitraj keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, ekspert xulosasi usuli kamroq ishlatiladi. Umuman olganda, taraflar xalqaro va milliy qonunchilikka muvofiq o'zlari uchun maqbul usulni tanlab, nizoni hal etishlari mumkin.

#### **XULOSA.**

Tijorat nizolarini hal etishda mediatsiya usuli zamonaviy huquqiy tizimda eng samarali va maqbul muqobil mexanizm sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu usul nizoni sudgacha hal etish imkoniyatini yaratib, jarayonning chozilib ketishini oldini oladi, shuningdek, vaqt va moliyaviy harajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Mazkur yondashuv biznes egalari uchun qulay jarayon hisoblanib, tomonlarning ortiqcha vaqtini olmagan holda hal etishga, rasmiylashtirish talablari va keskin qarama-qarshiliklarni bartaraf etishda samarali yo'l hisoblanadi.

Mediatsiya jarayonida nizolar maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, betaraf mediator ishtirokida hal etiladi. Bu usul nizolashayotgan tomonlarning o'zaro ishonchiga asoslangan bo'lib, natijada barcha tomonlarning manfaatlariga mos keladigan kelishuvga erishish mumkin.

Muzokaralarda esa tomonlar bevosita muloqot orqali o'z pozitsiyalarini muhokama qilib, nizoni tinch yo'l bilan hal qilishga intiladilar. Bu usulda tomonlarning o'zaro birgalikdagi harakati hamda maxfiylikning saqlanishi asosiy afzalliklardan biridir.

Mediatsiya – sud jarayonlariga nisbatan ancha tezkor, iqtisodiy jihatdan arzon va moslashuvchan bo'lib, tomonlar uchun xavfsiz muhit yaratadi. Ular nafaqat nizoni hal qilishni, balki kelgusida hamkorlikni davom ettirish imkoniyatlarini saqlab qolishni ta'minlaydi. Shunday qilib, ushbu usullar tijorat nizolarini hal qilishda o'z ahamiyatini oshirib bormoqda va kelajakda ham keng qo'llanishiga ishonch bildirsada bo'ladi.

#### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 01.05.2023
2. O'zbekiston Respublikasining 03.07.2018 yildagi O'RQ-482-son "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son //

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Mediatsiya to'g'risida", (2022)

3. O‘zbekiston Respublikasi 16.02.2021 yildagi O‘RQ-674-son “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida” gi qonuni Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.02.2021-y., 03/21/674/0123-son
4. Омонжонова К., Ачилова Л. (2024) The effectiveness of alternative methods of commercial dispute resolution: a comparative analysis of arbitration and mediation //Общество и инновации. – Т. 5. – №. 3/S. – С. 125-130.
5. Shodiyorovich N. A. (2023) Xalqaro tijorat arbitrajida arbitraj bitimining ahamiyati //o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – T. 2. – №. 18. – С. 601-606.
6. Abdullo o‘g‘li D. D. (2023) Mediatsiya va uning bosqichlari //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – T. 2. – №. 1. – С. 258-265.
7. Fotima T. A. (2023) Xalqaro xususiy huquqda iqtisodiy nizolarni hal qilishning muqobil usullari //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – T. 3. – №. 10. – С. 117-126.
8. Teshayev D. M. (2024) Mediatsiya nizolarni hal qiluvchi vosita sifatida //Academic research in educational sciences.– №. 3. – С. 593-597.
9. Sharipov, A. S. & Rashidov, (2024). Consideration of the Case in Court in Mediation Order. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, Volume, p-106–107.
10. Masadikov, Sh. M. (2008). Sushchnost mediatsii i problemy ee pravovogo regulirovaniya v Respublike Uzbekistan (Avtoreferat diss. kand. jurid. nauk). Tashkent.
11. Brown, H. (2020). Mediation in commercial disputes: Practical guide. Oxford University Press.
12. De Palo, G. (2019). EU mediation law and practice. Oxford University Press.